

PISTA O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI

Ilmiy rahbar: **Jo'rayeva Vazira Tuychiyevna**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Mamanazarova Marjona Rustam qiz

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Respublikamiz hududida 2018-2021-yillarda Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon va Toshkent viloyatlarida 10 ming gektarga yaqin maydonda intensiv tipdagi pista plantatsiyalarini barpo etish rejalashtirilgan. Bunda, ayniqsa, xandon pista plantatsiyalarini barpo etish tizimini soddalashtirish, pista o'rmonlarining xosildorligini oshirish, ularni ko'chatidan ko'paytirish usullarini soddalashtirish, pistachilikda innovatsion usullarni qo'llashga aloxida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: pista, dorivor, turkum, o'simlik, agrotexnika, yetishtirish, nav.

Annotation. It is planned to establish intensive-type pistachio plantations on nearly 10,000 hectares of land in the regions of Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, Fergana, Andijan, and Tashkent during the years 2018–2021. In particular, special attention is being given to simplifying the system of establishing pistachio (especially khandon pistachio) plantations, increasing the productivity of pistachio forests, simplifying propagation methods through saplings, and applying innovative methods in pistachio cultivation.

Keywords. pistachio, medicinal, category, plant, agrotechnology, cultivation, variety

Kirish.

Pista o'simligi botanik tasnifi. Xandon pista- *Pistacia vera* L. - Pistadoshlar Anacardiaceae oilasining *Pista Pistacia* L. turkumiga kiradi. Pista - *Pistacia* L. turkumi tarkibida 20 ta turi bulib, ular tabiiy xolda Urtaer dengizi va Kavkaz orti mamlakatlarida, Eron, Markaziy Osiyo, Afgoniston, Pokiston, Xitoy, AKLU va Meksika davlatlarida tarkalgan. Bu turlar ichida fakatgina *R. vera* ning yong'oq mevasi oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi. Bo'yi 2,5–10 m, shox-shabbasi tarqoq, 10–12 m kenglikda. Pista ikki uyli o'simlik, —40° sovuqqa chidaydi. Aprel—may boshlarida

dastlab erkak, soʻngra urgʻochi daraxtlari gullaydi, guli murakkab roʻvaksimon toʻpguldan iborat, shamol yordamida changalanadi. Mevasi bir urugʻli danak (pista). Pistasi avgust— sentabr pishadi. Qobigʻi yupqa, qattiq, yetilganda baʻzan uchidan yoriladi. Magʻzi yashil, mazali, tarkibida 63% gacha moy, 22% oqsil, 7% gacha uglevodlar, V guruhi vitaminlari, A provitami bor; asosan, qovurilgan holda yeyiladi, qandolatchilikda ishlatiladi. Pista lalmi yerlarda 10—12, sugʻorma yerlarda 7—8-yili hosilga kiradi. Yovvoyi holdagilari 15 kg gacha, payvand qilingan 8—10 yillik daraxtlari 30—45 kg meva beradi. Xandon pista qurgʻochilikka va issiqlikka juda chidamli boʻlganligi sababli namlik kam, quruq va issik; iqlimli mintakalarda xam usa olishi, ildizining chukur rivojlanishi bilan diqqatga sazovordir.

Asosiy qism.

Xandon pista yuqori parhez maxsulot boʻlib, tarkibida foydali mik- roelementlar - yog, oksil va kandga boyligi bilan xalq, tabobatida keng foydalaniladi. Ayniqsa, B1, B2, C, E vitaminlari hamda kaliy, fosfor, temir, magniy va kaltsiy kabi minerallarga boy. Masalan, E vitamini eng kuchli antioksidantlardan biridir. Ular, shuningdek, suyak va mushaklar mustahkamligida yordam beruvchi, uyqu sifatini yaxshilaydigan va stress bilan kurashishga yordam beradigan magniyga boy. Pista tarkibidagi kaliy yurak ishiga ijobiy taʻsir koʻrsatadi — qon tomirlarni mustahkamlaydi va yurak urishini normallashtiradi. Pistada juda koʻp boʻlgan selen immunitet tizimini ragʻbatlantiradi va zaharlanishning oldini oladi. B7 yoki biotin proteinni hazm qilish va yogʻlarni eritish xususiyati bilan metabolizmni yaxshilaydi. Pista tarkibidagi lutein koʻz uchun foydali — u koʻrish qobiliyatini oshiradi va umuman olganda, koʻz salomatligi uchun yaxshi profilaktika hisoblanadi. U koʻkrak qafasini yumshatadi va yoʻtalni engillashtiradi. Ichaklarni faollashtiradi. Buyrak ogʻrigʻini kamaytiradi. Bu tananing rivojlanishini qoʻllabquvvatlaydi. Bu jigarning muntazam ishlashini taʻminlaydi. Buyrak va jigar faoliyatida buzilishlarga olib kelmaslik uchun shifokorlar kuniga 30 grammdan koʻp boʻlmagan pista isteʻmol qilishni tavsiya qiladilar. Abu Ali ibn Sinoning tabobatga oid asarlarida jigar va osh- kozondagi kator kasalliklarni davolashda yaralarni bitiruvchi vosita sifatida pistaga katta oʻrin ajratilgan. Pista surunkali upka kasalliklarini davolashda xam kullaniladi. Ming yillar davomida Sharqda pistani odam vujudidagi zararli moddalarni chiqaruvchi davo vositasi, deb xisoblashgan. Pista mahsuloti katta daromad manbai boʻlib, mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi. Xandon pistadan Eron va Amerika Oʻrta Osiyoda noyob xisoblangan 22 turdan ortik lista navlari aloxida eʻtibor bilan parvarishlanmoqda. Pista daraxtining mevasi mazali, yirik, oʻlchami katta, bir dona mevasining vazni 12-14 grammni tashkil etadi. Yongʻoq, pusti ikki tomonga urtacha va tulik, asosigacha navlar

sarasiga kiradi. Misol uchun, Shirin, Sito- ra, Uzbekistan, Yeallaorol navli xandon pistalarning mevasi yirik, o`lchami - 20x12x12 mm. 100 dona mevasining ogirliigi 100-110 grammni tashkil etadi. Mevasi ikki tomonga tulik ajraladi. Meva magzining ajralishi umumiy xosilning 85 foizini tashkil etadi. Daraxtning bo`yi 3,44 metr. Asosiy tana yutonligi 20-30 santimetr. Urug`idan yetishtirilganda daraxtlar 10-12 yilda, vegetativ usulda ko`paytirilganda 8-10 yilda to`liq xosilga kiradi. Oraligi 8x8 metr usulda ekilgan daraxt gektariga 18-20 sentner xosil beradi. Tog` bag`ridagi lalmi yerlarda ba`zi fermerlar navdor pistalarning sanoat plantatsiyalarini yaratishmoqda. Bu uzoqqa mo`ljallangan tadbir bo`lib, nafakat fermer farovonligi, balki yerning uzi uchun xam juda foydalidir. Novdasini kurtak payvand qilishga yaraydigan xolatga keltirish uchun uni kamida uch yil parvarishlash kerak. Ushbu jarayonni tomorqalarda sug`orish yo`li bilan tezlashtirish mumkin. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun pistaning o`ziga xos xususiyatlarini bilish zarur.

Pista o`simligi qadimdan xalq tabobatida keng qo`llanilib kelinadi. Uning yong`oqlari (yadrosi), bargi, yog`i va hatto po`stlog`i ham shifobaxsh xususiyatlarga ega: Pista yadrosi yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olishda, xolesterin miqdorini kamaytirishda foydali. U organizmni energiya bilan ta`minlaydi, miya faoliyatini yaxshilaydi. Pista yog`i teri kasalliklarida, ayniqsa quruq va yallig`langan terida yumshatuvchi va tiklovchi vosita sifatida ishlatiladi. Barg damlamasi me`da-ichak faoliyatini yaxshilash, ich ketishini to`xtatish, og`riqni kamaytirish uchun qo`llanadi. Pista antioksidantlar, E vitamini, omega-3 yog` kislotalariga boy bo`lib, qarishni sekinlashtiradi va immunitetni mustahkamlaydi.

Yetishtirish agrotexnikasi. Pista o`simligini yetishtirish uchun quyidagi agrotexnik tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

1. Iqlim va tuproq talablari: Pista issiqqo`llikni yoqtiradi, sovuqqa chidamsiz. Yengil, qumloq, yaxshi drenajlangan, sho`rlanmagan tuproqlarda yaxshi o`sadi.
2. Ko`paytirish usullari: Urug` orqali va ko`chatlar yordamida ko`paytiriladi. Urug`dan yetishtirishda 6-8 yil, ko`chat usulida esa 4-5 yilda hosil beradi.
3. Ekin joyini tayyorlash: Ekin yer chuqur haydaladi, organik va mineral o`g`itlar bilan boyitiladi. Har bir ko`chat uchun 1x1 metrli chuqurchalar tayyorlanadi.
4. Parvarishlash: Suvga talabchan emas, biroq ekin davrida, ayniqsa ildiz otish bosqichida mo``tadil sug`orish zarur. Yiliga 2-3 marta o`g`itlanadi va begona o`tlardan tozalanadi.
5. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash: Asosan barg zararkunandalari va ildiz chirishiga qarshi biofungitsidlar va insektitsidlar bilan ishlov beriladi.

Xulosa: Pista o‘simligi nafaqat qimmatbaho yong‘oq mahsuloti sifatida, balki o‘zining dorivor xususiyatlari bilan ham alohida ahamiyatga ega. Uning mevalari yurak faoliyatini yaxshilash, immunitetni kuchaytirish, hazm qilish jarayonini tartibga solish kabi ko‘plab foydali xususiyatlarga ega. Shuningdek, pista yog‘i va boshqa tarkibiy qismlari xalq tabobatida ham keng qo‘llaniladi. Pistani muvaffaqiyatli yetishtirish uchun ilmiy asoslangan agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri tashkil qilish zarur. Shular jumlasiga ekish uchun mos tuproq va iqlim sharoitini tanlash, sifatli ko‘chat materialidan foydalanish, sug‘orish, o‘g‘itlash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash choralarini o‘z vaqtida amalga oshirish kiradi. Umuman olganda, pista yetishtirishning zamonaviy yondashuvlari va dorivorlik xususiyatlaridan oqilona foydalanish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki aholi salomatligini saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiboev O.T., Xodjayev Sh. – O‘simlikshunoslik asoslari, Toshkent: “Mehnat”, 2019.
2. Karimov A.A. – Dorivor o‘simliklar va ularning farmakologiyasi, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
3. Mamatov M.M., Mamatqulov D. – O‘zbekistonda yetishtiriladigan dorivor o‘simliklar, Samarqand, 2020.
4. Axmedov A.M. – Fitoterapiya asoslari, Toshkent: “Ibn Sino”, 2018.
5. G‘ulomov A. – Agrobiologiya asoslari, Toshkent: “O‘qituvchi”, 2022.
6. Zaynutdinov A.T. – Dorivor o‘simliklar ensiklopediyasi, Toshkent, 2021.
7. Xudoyberganov S. – O‘simliklar morfologiyasi va tizimi, Toshkent: “Universitet”, 2017.
8. Ergashev R.J. – Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish texnologiyasi, Toshkent: “Fan”, 2020.
9. Khamidov M.M. – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi, Qarshi: Nasaf, 2019.
10. Мирзаев М.М. – Плодоводство Средней Азии, Ташкент: Фан, 1985.
11. Nasriddinova G’. – Fitokimyoviy tahlil asoslari, Toshkent: “Ibn Sino”, 2023.
12. www.agro.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy veb-sayti (2024-yil ma’lumotlari).